6-rasm respondentlarning odamlar orasida boʻlgan taqdirda ham oʻzlarini yolgʻiz, tushunilmagan yoki ajralgan his qilish holatini oʻrganishga qaratilgan. Bu holat koʻpincha emotsional izolyatsiya, ichki boʻshliq va jamiyatga qoʻshila olmaslik kabi muammolarni ifodalaydi. “Oʻzingizni odamlar orasida ham yolgʻiz his qilasizmi?” degan savolga respondentlarning 62 foizi “yoʻq” deb javob bergan. Ular oʻzlarini odamlar orasida ijtimoiy jihatdan qabul qilingan, muloqotga ochiq va ishtirokchi sifatida his qilishadi. Respondentlarning 26 foizi “ba’zida” deb javob bergan boʻlib, ular vaqti-vaqti bilan oʻzlarini yolgʻiz his qilishadi. Bu toifa ishtirokchilar asosan ichki ziddiyatlar bilan oʻralashib, oʻzini yetarli darajada qadrlamaydilar va odamlar orasida oʻz oʻrnini topolmaydilar. Agar bu holat respondentlarda davom etsa, bu guruhdagi yoshlar tushkunlik yoki depressiyaga duch kelishlari mumkin. “Ha” deb javob bergan 12 foiz yoshlar atrofida yaqinlari va doʻstlari boʻlishiga qaramasdan oʻzlarini yolgʻiz his qilishadi. Bunday respondentlar bilan individual psixologik suhbatlar olib borish lozim. Diagramma natijalari shuni koʻrsatadiki, yoshlarning 38 foizi odamlar orasida boʻlishiga qaramay, oʻzlarini yolgʻiz his qilishadi. Bu esa yuridik klinika yoki psixologik xizmatlar orqali emotsional va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimlarini mustahkamlash zarurligini koʻrsatadi.



| | Hech qachon | Kamdan-kam | Ba’zida | Tez-tez | Doim |
|---|---|---|---|---|---|
| Foiz (%) | 32% | 42% | 24% | 1% | 1% |
| Son | 30 | 39 | 23 | 1 | 1 |



**7-rasm. Respondentlarning tushkunlik yoki umidsizlik hissini boshdan kechirish**

7-rasmda respondentlarning tushhkunlik yoki umidsizlikni boshdan kechirish chastotasi keltirilgan. Ular quyidagi besh toifaga boʻlingan: respondentlarning 32 foizi tushkunlik yoki umidsizlikni umuman his qilmaydi; 42 foizi “kamdan kam”, 24 foizi “ba’zida”, 2 foizi “tez-tez”, “doimo” deb javob bergan. Olingan natijalarni psixologik tahlil qilamiz. Respondentlarning 32 foizi ruhiy barqarorlikka ega, stressga chidamli guruhga kiradi. Ular ijtimoiy faol, oʻziga ishonadigan va ijobiy dunyoqarashga ega boʻlishadi. Ishtirokchilarning 42 foizi vaqti-vaqti bilan ruhiy zoʻriqishni boshidan kechiradi. Bunday vaziyatga tushishi uchun quyidagi vaziyatlar sabab boʻlishi mumkin:

– oʻqishdagi bosim;
– oila yoki doʻstlar bilan ziddiyatlar;
– kelajakka boʻlgan ishonchsizlik.

Respondentlarning 24 foizi “ba’zida” deb javob bergan. Bu guruh oʻzini sezilarli darajada beqaror yoki emotsional ruhiy holatda his qilayotgan boʻlishi mumkin. Ichki motivatsiyaning susayishi, oʻziga nisbatan ishonchsizlik, yaqin doʻstlari yoki oilasidan ajralish hissi bilan bogʻliq bunday yoshlarning xavf

darajasi orta borib, ularni doimiy e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ishtirokchilarning 2 foizi "tez-tez" va "doim" deb javob bergan. Bu guruhdagi yoshlar ruhiy tushkunlikni tez-tez yoki doimiy boshdan kechirayotgani bildiradi. Ushbu holat ishtirokchilari klinik depressiya yoqasida turganligini anglatadi va xavf darajasi yuqori bo'ladi, ularni zudlik bilan psixolog yoki psixiatr ko'magiga yo'naltirish lozim.




**8-rasm. Javoblar natijasi**

8-rasm respondentlarning o'z oilasi bilan munosabatlari qanday ekanligini baholashlari asosida tuzilgan. Bu ijtimoiy muhit, hissiy barqarorlik, xavfsizlik va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq eng muhim ijtimoiy-psixologik indikatorlardan biri hisoblanadi. "Oila bilan munosabatingizni qanday baholaysiz?" degan savolga respondentlarning 67 foizi "juda yaxshi" deb javob bergan. Bu guruhdagi yoshlar ruhiy va ijtimoiy barqarorlikka ega bo'lib, o'zini qadrlangan va tushunilgan his qiladi. Bu holat ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Respondentlarning 24 foizi "yaxshi" deb javob bergan. Bu guruhda oilaviy munosabatlar, umuman olganda, ijobiy baholangan bo'lsa-da, ayrim noaniqliklar, kamchiliklar yoki ziddiyatlar bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ular bilan oilaviy muloqotni mustahkamlash bo'yicha dasturlar foydali bo'ladi. "Yomon" deb javob bergan 9 foiz ishtirokchilarda ba'zi oilaviy muammolar mavjud. Bu holatlar quyidagilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

- oiladagi ziddiyatli vaziyatlar;
- ota-onaning farzandiga e'tiborsizligi, befarqligi;
- oilada qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi.

Bu guruhdagi yoshlar ijtimoiy xavf ostida. Ularda ruhiy tushkunlik, yolg'izlik, ishonchning yo'qolishi, hattoki stressga chidamsizlik belgilarini ko'rish mumkin. Umuman olganda, so'rov natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat yoshlar uchun oila – barqarorlik va qo'llab-quvvatlash manbayi hisoblanadi. Biroq har 10 nafar respondentdan 1 nafari uchun bu manba stress yoki xavotir manbayiga aylangan. Mazkur holat yuridik klinika va ijtimoiy-psixologik xizmatlarning profilaktik yondashuvlarini talab etadi.




**9-rasm. Javoblar natijasi**

Ushbu savol orqali respondentlarning yaqin ishonchli do'stlari mavjudligi haqidagi subyektiv fikri aniqlangan. 9-rasmda quyidagi uchta asosiy javob toifasi mavjud bo'lib, "Siz ishonishingiz mumkin bo'lgan yaqin do'stlaringiz bormi?" degan savolga respondentlarning 66 foizi "ha" deb javob bergan. Ushbu guruhga kiruvchi yoshlar o'z atrofida ishonadigan yaqin do'stlari bor deb hisoblaydi. Ularning ruhiy holati mustahkam, yolg'izlik hissi kamroq, ijtimoiy moslashuvchanligi yuqori bo'ladi. "Yo'q" deb javob berganlarning 17 foizi hech qanday yaqin do'stga ega emasligini bildirgan. Bunga ijtimoiy izolyatsiya, ishonch muammosi, yolg'izlik yoki beqaror psixologik muhitda yashash kabi holatlar sabab bo'lishi mumkin. Mazkur toifaga kiruvchi yoshlar ijtimoiy himoyasiz, psixologik yordamdan mahrum bo'lganligi ehtimoli bor. Respondentlarning 17 foizi "ishonchim komil emas" deb javob bergan. Ushbu toifa yoshlarning bunday yo'l tutishiga, oldingi salbiy holatlar (xiyonat, rad etilish) sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga yoshlarning uchdan ikki qismi ishonchli do'stga ega, bu ijobiy holat hisoblanadi. Ammo har uchinchi ishtirokchi o'zini ijtimoiy jihatdan ishonchsiz his qilmoqda. Bu holatni bartaraf etish uchun do'stlik, empatiya va tengdoshlar bilan muloqotni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik dasturlar zarur.




| | Juda kuchli | Yetarli | Zaif | Qo'llab-quvvatlash yo'q |
|---|---|---|---|---|
| Son | 28 | 57 | 8 | 1 |
| Foiz (%) | 30% | 60% | 9% | 1% |

Son  Foiz (%)

**10-rasm. Javoblar natijasi**

10-rasm respondentlarning o'zlarini ijtimoiy muhitda – yaqinlari, do'stlari, jamiyat a'zolari tomonidan qanchalik darajada qo'llab-quvvatlangan deb his qilishlari haqidagi fikrini aks ettiradi. "Atrofingizdan qanchalik qo'llab-quvvatlashni his qilasiz?" degan savolga respondentlarning 30 foizi "juda kuchli" deb javob bergan bo'lsa, 60 foizi "yetarli" deb javob bergan. Bu guruhdagi yoshlar o'zlarini ijtimoiy muhitda emotsional, ijtimoiy va axloqiy jihatdan qo'llab-quvvatlanayotgan deb his qiladi. Ushbu ko'rsatkich juda ijobiy hisoblanadi. Bu yoshlar o'z muammolarini yolg'iz hal qilmaydi. Ular yordam so'rash, maslahat olish, muammoni ochiq aytishga tayyor yoshlar guruhiga kiradi. "Zaif" deb javob bergan 9 foiz respondentlar qo'llab-quvvatlashni kam his qiladi. Shuningdek, ular ichki izolyatsiyaga moyil bo'lishi ham mumkin, yordam so'rashga tortinishadi, o'zini kamsitilgan his qilish ehtimoli bor. Respondentlarning 1 foizi "qo'llab-quvvatlash yo'q" deb javob bergan. U o'zini jamiyatda butunlay yolg'iz, yordamga muhtoj deb his qiladi. Bunday holat:

– og'ir psixologik stress;
– o'ziga bo'lgan ishonchsizlik;
– suitsidga moyilligi.

Bunday guruhga kiruvchi yoshlar juda yuqori ijtimoiy xavf guruhiga moyilligi bor hisoblanadi. Ularga zudlik bilan individual psixologik yordam ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlar orqali yordam tizimini yo'lga qo'yish lozim. Bunday yoshlar o'zini qanchalik ijtimoiy qo'llab-quvvatlanayotgan deb his qilsa, ularning ruhiy salomatligi, qaror qabul qilish qobiliyati, stressga bardoshliligi ortadi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, har 10 kishidan 9 nafari o'zini qo'llab-quvvatlangan deb hisoblaydi – bu jamiyatda ma'naviy tarbiya yetarlicha ekanligini bildiradi. 10 kishidan 1 nafari esa zaif yoki umuman qo'llab-quvvatlanmagan muhitda yashaydi. Uni yuridik klinikalar, psixologik xizmatlar va ijtimoiy tashkilotlar tomonidan alohida nazoratga olish kerak bo'ladi. Diagrammadagi natijalar juda quvonarli – ishtirokchilarning 90 foizi o'zini ijtimoiy himoyalangan, ishonchli muhitda deb biladi [4]. Ammo 10 foiz respondent (zj69

aif + umuman yo'q) – emotsional xavf guruhiga kiradi. Yuridik klinika ularning ijtimoiy holatini mustahkamlashda vositachi bo'lishi lozim.




**11-rasm. Javoblar natijasi**

11-rasmda yoshlarning ruhiy bosimni yengish uchun zararli moddalar (alkogol, narkotik, boshqa stimulyatorlar)dan foydalanish holati o'rganildi. "Stressni yengish uchun spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar va boshqa moddalarni iste'mol qilganmisiz?" de-

gan savolga respondentlarning 86 foizi "hech qachon" deb javob bergan. Bu respondentlar zararli moddalarni stressni yengish vositasi sifatida iste'mol qilmagan. Ushbu guruhdagi yoshlarda zararli odatlarning oldi olingan, himoyalangan va profilaktika samarali ishlagan. Respondentlarning 10 foizi "kamdan kam" deb javob bergan. Bu yoshlar kamdan kam hollarda stressdan chiqish uchun zararli moddalarni iste'mol qilganini bildiradi. Bunday holat tajriba (eksperiment), do'stlar bosimi yoki o'z-o'zini tinchlantirish bilan bog'liq bo'lishi, agar bu guruhdagi yoshlarga jiddiy e'tibor qaratilmasa, bu jarayon odatga aylanishi mumkin. Ular bilan xavfsiz muqobil strategiyalar (psixologik maslahat, sport, kreativ faoliyat) haqida suhbatlar olib borish lozim bo'ladi. Respondentlarning 4 foizi "ba'zida" va "tez-tez" deb javob bergan. Bu guruhga kiruvchi yoshlar psixologik bosimga dosh bera olmasdan zararli moddalarni iste'mol qilgan bo'lishi mumkin. Bunda ular asosan ruhiy og'riqni yengish, muammolardan qochish uchun foydalangan bo'lishi ham mumkin. Ular bilan zudlik bilan psixologik maslahat, ehtimoliy reabilitatsiya muassasalari shug'ullanishi kerak. Yuridik klinika va maktab psixologlari tomonidan individual nazorat o'rnatish lozim. Diagrammadagi ijobiy ko'rsatkichga qaramay, 14 foiz respondentning zararli moddalarga murojaat qilgani ogohlantiruvchi signaldir. Bu yoshlar bilan individual tarzda psixologik, huquqiy va ijtimoiy yondashuvni kuchaytirish lozim.




**12-rasm. Javoblar natijasi**

12-rasm respondentlarning atrofdagilar bilan (maktabda, ishda, oilada, ko'chada) nizolarga, ziddiyatlarga borishini aks ettiradi. Bu savol yoshlarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy muvofiqligi va ziddiyatga moyilligini aniqlashda muhim mezondir. "Boshqalar bilan (maktabda, ishda, oilada) nizolarga kirishish hollari qanchalik tez-tez sodir bo'ladi?" degan savolga respondentlarning 40 foizi "hech qachon", deb javob bergan. Bu respondentlar o'zini boshqalar bilan murosali, ijtimoiy jihatdan uyg'un shaxs deb his qiladi. Ular:

- konfliktlarning oldini olishga harakat qiladi;
- salbiy emotsiyalar ustidan nazoratga ega;
- to'g'ri muloqot va muammolarni hal etish qobiliyatiga ega.

Bu guruhda psixologik barqarorlik va ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori. Respondentlarning 50 foizi "kamdan kam" deb javob bergan. Bu guruh ham odatiy ijtimoiy vaziyatlarda murosani afzal ko'radi, ammo ayrim holatlarda mojaro ehtimoli mavjud, muloqotda ba'zan agressivlik, tushunmaslik yoki sabrsizlik holatlari kuzatiladi. Ularda ijtimoiy xavf darajasi past, ammo ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni mustahkamlash zarur bo'ladi. Respondentlarning

7 foizi "ba'zida" yoki "tez-tez" deb javob bergan.

Bunday respondentlar tezda ziddiyatga boruvchi yoki sabrli bo'lmagan shaxslar bo'lishi mumkin. Bularda odatda ruhiy zo'riqish, oilaviy yoki ijtimoiy bosim surunkali davom etishi mumkin. Bunday guruhga kiruvchi yoshlarga individual psixologik suhbatlar, muomala etikasini, shu bilan birga, muammoni tinch yo'l bilan hal qilish texnikalarini o'rgatish lozim bo'ladi. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, 90 foizdan ortiq yoshlar ziddiyatlardan yiroq yoki murosani tanlovchi shaxslardir. Bu jamiyatda salbiy tajovuz darajasining nisbatan past ekanligidan dalolat beradi. Biroq 7 foiz respondentlar ziddiyat holatlarini boshdan kechirayotganini bildirgan, bu esa ular bilan maxsus psixologik va ijtimoiy yordam ishlarini yo'lga qo'yishni talab qiladi. Ijtimoiy muvozanatni saqlash va nizolarning oldini olish bo'yicha yoshlarning ko'pchiligi yaxshi ko'nikmaga ega. Shu bilan birga, 6–7 foiz respondentlar doimiy yoki ba'zida turli nizolarga duch kelmoqda. Bu holatlar psixologik yordam, muomala etikasini o'rgatish va ijtimoiy treninglar orqali ijobiy tomonga yo'naltirilishi mumkin.

**Qoidalar yoki qonunlarni buzishga bo'lgan istakni qanchalik tez-tez his qilasiz?**




| | Son | Foiz (%) |
|---|---|---|
| Hech qachon | 59 | 63% |
| Kamdan kam | 25 | 27% |
| Ba'zida | 9 | 10% |
| Tez-tez | 0 | 0% |
| Doim | 1 | 1% |

**13-rasm. Javoblar natijasi**

"Qoidalar yoki qonunlarni buzishga bo'lgan istakni qanchalik tez-tez his qilasiz?" degan savolga (13-rasm) respondentlarning 63 foizi "hech qachon" deb javob bergan. Bunday respondentlar:

- qonunlarni hurmat qiladi;
- ijtimoiy qoidalarni qadriyat sifatida qabul qiladi;
- mas'uliyatli va ijtimoiy jihatdan moslashgan.

Respondentlarning 27 foizi "kamdan kam" deb javob bergan. Ularda qonun yoki tartiblarni buzishga bo'lgan moyilliklar mavjud bo'lib, bu holatlar ko'pincha emotsional zo'riqish, adolatsizlik hissi, yoki tizimga ishonchsizlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Respondentlarning 10 foizi "ba'zida", 1 foizi "doim" deb javob bergan. Bu guruhda qonunbuzarlik istagi davriy yoki doimiy tarzda mavjud bo'lishi mumkin. Bunday yoshlarga individual psixologik suhbatlar, shaxsiy motivlarni aniqlash orqali hamda ijtimoiy xizmatlar, yuridik klinikalar orqali axloqiy, huquqiy yordam berish lozim. Har 10 kishidan 6 nafari qonunlarga sodiq. Ammo 4 nafardan biri ("kamdan kam", "ba'zida" va "doim") qonunbuzarlik istagini his qiladi yoki boshidan kechirgan. Bu esa ijtimoiy nazorat, huquqiy ta'lim va profilaktik choralarni talab etadi. Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, respondentlarning 63 foizi qonunni hurmat qiluvchi, jamiyatga moslashgan. 37 foizi potensial xavf guruhi hisoblanadi. Bular norozilik, emotsional g'azab, ijtimoiy adolatsizlik kabi omillardan kelib chiqadigan ichki xatti-harakat impulslariga ega.




**14-rasm. Javoblar natijasi**

"Hech o'zingizni yoki boshqalarga nisbatan tajovuzkorlik hissini his qilganmisiz?" degan savol respondentlarning agressiya (ya'ni jahl, zo'ravonlikka moyillik, o'ziga yoki boshqalarga nisbatan zararli harakat istagi) holatini boshdan kechirishini aniqlaydi. Bu savolga respondentlarning 67 foizi "hech qachon" deb javob bergan. Bu respondentlar emotsional barqaror, ichki zo'riqishlarga nisbatan chidamli, tajovuzkorlik darajasi past bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

Respondentlarning 21 foizi "kamdan kam" deb javob bergan. Ular ba'zida g'azab, jahl, tajovuzni his qiladilar, ammo uni o'z o'rnida nazorat qila oladilar. Bunday holatlar stress, e'tiborsizlik yoki nizolar natijasida yuzaga kelishi, ularda potensial ichki zo'riqish mavjud bo'lib, ammo hali nazorat doirasidan chiqmaganligi seziladi. Respondentlarning 11 foizi "ba'zida", 1 foizi "tez-tez" deb javob bergan. Ushbu guruh ishtirokchilri tajovuzkor hisoblanadi. Bunga sabab ichki izolyatsiya, norozilik, e'tiborsizlik, oilaviy yoki ijtimoiy bosimdan kelib chiqishi mumkin. Bunday yoshlar ijtimoiy xavf guruhiga kirishi sababli ularga maxsus psixologik maslahatlar, agressivlikni tinch yo'l bilan yengish usullarini o'rgatish (masalan, san'at, sport) va individual kuzatuvga olish lozim.

14-rasm shuni ko'rsatadiki, 10 kishidan 3 nafari ("kamdan kam", "ba'zida", "tez-tez") bu hissiyotlarni boshdan kechirgan. Agressiv impulslar yoshlar orasida nafaqat ruhiy salomatlik, balki huquqiy va ijtimoiy xavf ko'rsatkichlari hisoblanadi [5].  Umuman olganda, 67 foiz respondent tajovuzkorlikni rad etgan, bu ijobiy natijadir. Ammo 33 foiz respondentda bu hissiyot mavjud, ular normal, davriy yoki xavfli ko'rinishdagi agressiya sifatida ko'rib chiqilishi lozim.




**15-rasm. Javoblar natijasi**

Ushbu savol respondentlarning kelajak haqidagi umumiy kayfiyati va umid darajasini koʻrsatadi. 15-rasm asosida yoshlarning optimistik yoki pessimistik qarashlari ham tahlil qilinadi. Respondentlarning ushbu savolga 67 foizi "juda ijobiy", 21 foizi "ijobiy" deb javob bergan. Bu guruhga kiruvchi yoshlar, umidli va ichki motivatsiyaga ega, rejali, muayyan maqsadga yoʻnaltirilgan, oʻziga ishonadi, oʻz hayotini boshqarishga tayyor turgan respondentlardir. Ular psixologik barqaror, oʻz yoʻlini aniq koʻrayotgan, jamiyatda faol oʻrin egallashga intilayotgan yoshlar hisoblanadi. Respondentlarning 11 foizi "Betaraf" – bu guruh kelajakka nisbatan befarq, noaniq yoki ehtimoliy xavotirli qarashga ega, ichki motivatsiya pasaygan, aniq maqsadga ega emas. Bunday yoshlarga oʻzini anglash va shaxsiy potensialni rivojlantirishga qaratilgan psixologik suhbatlar lozim. "Juda salbiy" deb javob bergan 2 foiz respondentlar hayotga nisbatan umidsizlik, tushkunlik yoki kelajakdan xavotirda. Bu respondentlarda ichki ziddiyatlar mavjud boʻlib, atrofdagilarning yoki oilaviy bosim taʼsirida salbiy qarash shakllangan. Ularda tushkunlik yoki depressiv holat ehtimoli bor. Bular ijtimoiy xavf guruhiga mansub yoshlar hisoblanib, ular bilan zudlik bilan psixologik suhbatlar, umid va motivatsiyani oshirishga qaratilgan mashgʻulotlar olib borish lozim. Diagramma natijalari shuni koʻrsatadiki, respondentlarning deyarli 90 foizdan ortigʻi kelajakni ijobiy yoki juda ijobiy baholaydi. Ammo har 20 respondentdan 1 nafari (5 foizi) kelajakni salbiy yoki noaniq deb biladi – bu ularning ijtimoiy integratsiyasi va psixologik qoʻllab-quvvatlashga boʻlgan ehtiyojini anglatadi. Shu bilan birga oliy motivatsiya va optimizm respondentlar orasida yuqori – bu yaxshi ijtimoiy-psixologik muhitdan darak beradi. Ammo salbiy qarash bildirgan yoshlar (2–3 foiz) individual yondashuv va ruhiy qoʻllab-quvvatlashga muhtoj.




**16-rasm. Javoblar natijasi**

"Faol ravishda erishishga intilayotgan maqsadlaringiz yoki orzularingiz bormi?" degan savolga (16-rasm) 78 nafar respondent (84 foiz) "ha" deb javob bergan. Bu katta koʻrsatkich boʻlib, ishtirokchilarning aksariyati aniq bir maqsad yoki orzuga ega ekanligini

koʻrsatmoqda. Ular bu maqsadga faol intilayotganliklarini bildirganlar. 8 nafar respondent (8 foiz) "yoʻq" deb oʻz fikrini bildirgan. Bu guruhda maqsad yoki orzu yoʻqligi kuzatilgan. Ularning ulushi ancha kam, lekin bu holat ham eʼtiborga loyiq. 8 nafar respondent (8 foiz) "javob berishga qiynalaman" degan. Bu javobni berganlar maqsadga ega boʻlish yoki uni anglash borasida ikkilanishmoqda yoki oʻz fikrlarini aniq ifoda eta olmaganlar. Respondentlarning katta qismi, yaʼni 84 foizi faol harakatda boʻlgan maqsad yoki orzuga ega. Bu ularning motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishga boʻlgan intilishlarini koʻrsatadi. Respondentlarning 16 foizi, yaʼni 8 foizi "yoʻq" va 8 foizi "qiynalaman" deb javob bergan. Ular

maqsad yoki orzular borasida noaniqlikka egadirlar. Bu guruh bilan individual ishlash, motivatsion treninglar yoki psixologik koʻmak orqali ijobiy natijaga erishish mumkin.




**17-rasm. Javoblar natijasi**

“Hayotingizni mazmunsiz deb his qilishingiz qanchalik tez-tez sodir boʻladi?” degan savolga respondentlarning (17-rasm) 37 nafari (39 foizi) “hech qachon” deb javob bergan. Respondentlarning deyarli yarmi hayotini mazmunsiz deb hisoblamaydi. Bu ularning hayotdan qoniqish darajasi yuqoriligini bildiradi. “Kamdan kam” deb 36 nafar respondent (38 foizi) javob bergan. Bu guruh ham ijobiy qarashga ega. Demak, jamiyatda ijobiy psixologik holatga ega boʻlganlar koʻpchilikni tashkil qiladi. “Ba'zida” deb 17 kishi (19 foiz) javob bergan. Bu guruhdagi ishtirokchilar vaqti-vaqti bilan hayotlarining mazmuni borasida ikkilanishadi. Bu holat stress, noaniqlik yoki hayotdagi muayyan muammolar bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. “Tez-tez” deb 1 nafar respondent (1 foiz) javob bergan. Juda kam ishtirokchi hayotini koʻpincha mazmunsiz deb his qiladi. Bu holat jiddiyroq psixologik yordamga muhtojlikni anglatishi mumkin. “Doim” deb 3 nafar respondent (3 foiz) javob bergan. Ushbu guruh kichik boʻlsa-da, ularning doimiy ravishda hayotni mazmunsiz deb hisoblashi chuqur psixologik muammolardan dalolat berishi mumkin. Shu bilan birga ijobiy natija ham mavjud, 77 foiz (39+38) ishtirokchilar hayotlarini mazmunli deb hisoblashadi yoki kamdan kam hollarda salbiy fikrda boʻlishadi. E'tibor talab qiluvchi guruh, 22 foiz (19+1+3) insonlar esa ma'lum darajada salbiy fikrlarga ega. Ayniqsa, “tez-tez” va “doim” deb javob berganlar bilan psixologik koʻmak ishlari olib borilishi lozim.




**18-rasm. Javoblar natijasi**

"O'zingizga zarar yetkazish fikri hech xayolingizga kelganmi?" degan savolga (18-rasm) respondentlarning 71 foizi "yo'q" deb javob bergan.

Bu ijobiy hol bo'lib, ularning aksariyatida o'ziga nisbatan salbiy fikrlar mavjud emasligini bildiradi. So'rovnoma ishtirokchilarining 16 foizi "ha" deb javob bergan. Bu ular hayotlarining ma'lum bir bosqichida o'zlariga zarar yetkazish fikrida bo'lgan. Ushbu holat jiddiy psixologik signal bo'lib, ularni alohida e'tibor bilan kuzatish va qo'llab-quvvatlash zarur. Respondentlarning 13 foizi "javob berishga qiynalaman" degan. Bu guruh ochiq javob bera olmagan, balki noqulaylik yoki aniq fikr bildirishda qiyinchilik sezgan bo'lishi mumkin. Ular bilan individual muhitda suhbatlar olib borish foydali bo'ladi. Umuman olganda, berilgan javoblarga ko'ra, 71 foiz respondentlar ruhiy salomatlik jihatidan xavfsiz deb hisoblanadi. 29 foiz (ya'ni "ha" va "qiynalaman" deb javob berganlar) esa potensial xavf guruhiga moyilligini bildiradi. Bu ko'rsatkich e'tiborli bo'lib, ushbu yoshlarga psixologik maslahatlar berish, individual yordam ko'rsatish kerak [6].




**19-rasm. Javoblar natijasi**

"Jamiyat tomonidan tashqi ko'rinishingiz, xatti-harakatlaringiz yoki yutuqlaringizga bosimni his qilasizmi?" degan savolga (19-rasm) respondentlarning 60 foizi "yo'q" deb javob bergan. Ularning aksariyati jamiyat tomonidan bosim sezmasligini bildirgan. Bu guruh ishtirokchilarining ijtimoiy muhitda o'zini erkin his qilishini yoki o'z fikri va yutuqlariga nisbatan ishonchli ekanini ko'rsatadi. Respondentlarning 22 foizi "ba'zida" deb javob bergan. Ushbu guruh bosimni doimiy emas, balki ba'zida sezadi. Bu holat jamiyatning ayrim holatlarida ijtimoiy stereotiplardan kelib chiqishi mumkin. Ishtirokchilarning 18 foizi "ha" deb javob bergan. Bu guruh jamiyat bosimini o'zida his qiladi. Umuman olganda, ijobiy tomoni respondentlarning 60 foizi jamiyat ta'sirini sezmaydi, bu yaxshi ijtimoiy-psixologik holatni bildiradi. E'tiborli jihati ishtirokchilarning 40 foizi (22 foizi "ba'zida" va 18 foizi "ha") bosimni sezgan. Bu yoshlarning ijtimoiy baholash va tanqidga sezuvchanligini bildiradi. Bosim his qilayotganlar bilan ochiq muloqotli muhit yaratish, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, individual va guruh bo'lib psixologik treninglar o'tkazish foydali bo'ladi.




**20-rasm. Javoblar natijasi**

"Agar psixologik yoki maslahatchi bilan gaplashish imkoniyati boʻlsa, foydalanarmidingiz?" degan savolga (20-rasm) respondentlarning javoblari quyidagicha. "Ha" deb javob bergan ishtirokchi 44 nafarni tashkil etadi. Respondentlarning katta qismi psixolog yoki maslahatchi bilan suhbatlashish imkoniyati boʻlsa, undan foydalanishni istagan. Bu ularning ichki ehtiyojlari, emotsional qoʻllab-quvvatlashga boʻlgan ehtiyoji borligini bildiradi. "Yoʻq" deb javob berganlar 39 nafar nafarni tashkil etadi. Bu guruh maslahatchi yoki psixolog xizmatiga ehtiyoj sezmagan yoki bu xizmatni foydali deb hisoblamaydi. Ehtimol, ular oʻz muammolarini mustaqil hal qilishga oʻrgangan yoki bunday xizmatga ishonchsizlik bilan qaraydilar. "Ishonchim komil emas" deb javob bergan respondent 11 nafarni tashkil etadi. Bu javobni berganlar ikkilanishda. Ular psixologik yordamga ehtiyoj bor-yoʻqligini aniq bilmaydi yoki qaror qabul qilishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Umuman olganda, 44 nafar (taxminan yarmi) psixologik yordamni olishga istak bildirgan. Shuni e'tiborga olish muhimki, 50 ta ishtirokchi (39+11) bu xizmatga nisbatan qiziqish bildirmagan. Bu holat axborot yetishmasligi, ishonchning pastligi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Respondentlarga psixologik yordamga oid targʻibot ishlarini kuchaytirish zarur. Mutaxassislar bilan ochiq muloqot platformalari (masalan, maxfiy suhbat imkoniyatlari) tashkil qilish foydali boʻladi. "Ishonchim komil emas" degan guruh uchun psixologik xizmat nima ekanligi, undan qanday foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot berish lozim.

**Tadqiqot natijalari tahlili**

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 16–21 yoshdagi ishtirokchilar oʻrtasida oʻtkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlarda mavjud muammolar, psixologik holat, ijtimoiy moslashuv darajasi va emotsional ehtiyojlar haqida keng qamrovli ma'lumotlar berdi. Ushbu tahlil, yoshlarga qaratilgan davlat siyosati va huquqiy-ma'rifiy chora-tadbirlarning samaradorligini baholashda muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotda ishtirok etganlardan deyarli 90 foizi oʻquvchi yoki talaba, 90 foizdan ortigʻi esa ota-onasi bilan yashaydi. Bu holat, nazorat va qoʻllab-quvvatlash tizimi mavjudligidan darak bersa-da, oilaviy ichki nizolar, befarqlik yoki haddan ortiq nazorat tufayli stress va izolyatsiya holatlari mavjud boʻlishi ehtimolini istisno etmaydi.

Psixologik jihatdan, respondentlarning 70 foizdan ortigʻi stress va bezovtalikni vaqti-vaqti bilan boshdan kechiradi, 29 foizi esa

oʻziga zarar yetkazish haqidagi fikrlarni tan olgan yoki bu savolga javob berishda qiynalgan. Yana 38 foiz respondent odamlar orasida ham oʻzini yolgʻiz his qilishini bildirgan. Bu holatlar yoshlar oʻrtasida psixologik yordamga boʻlgan ehtiyoj nihoyatda yuqori ekanini koʻrsatadi. Ijtimoiy munosabatlar borasida respondentlarning 34 foizi yaqin doʻstlarga ega emasligi yoki doʻstlariga toʻliq ishonmasligini aytgan. 10 foiz respondent esa jamiyat tomonidan yetarli darajada qoʻllab-quvvatlanmaslikni his qiladi. Har oʻninchi ishtirokchi oilaviy muammolar mavjudligini bildirgan. Ushbu koʻrsatkichlar yoshlar orasida hissiy izolyatsiya va ijtimoiy yakkalanishga sabab boʻluvchi omillar mavjudligini koʻrsatadi.

Deviant xatti-harakatlarga moyillik borasida, 14 foiz respondent ziqlikni yengish uchun zararli moddalar (spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari) isteʼmol qilganini bildirgan. 37 foiz respondent qonun yoki qoidalarni buzishga moyilligini tan olgan. 33 foizi esa oʻzida agressiya hissi mavjudligini bildirgan. Bu esa yoshlar orasida ichki norozilik, gʻazab, ijtimoiy adolatsizlik hissi va bosim natijasida kelib chiqadigan xavfli xatti-harakatlarning ehtimolini tasdiqlaydi.

Shunga qaramay, ijobiy holatlar ham mavjud. Respondentlarning 88 foizi kelajakni ijobiy yoki juda ijobiy baholagan, 84 foizi aniq maqsad va orzulariga ega ekanligini bildirgan. Bu ularning ichki motivatsiyasi yuqoriligini, jamiyatda oʻz oʻrnini topishga intilayotganini anglatadi. Shuningdek, 50 foiz respondent psixologik yordam olishga tayyor ekanligini bildirgan. Bu esa maxsus xizmatlarga boʻlgan ehtiyoj mavjudligini koʻrsatadi.

Yakuniy xulosalarga koʻra, yoshlar orasida ijtimoiy xavfning asosiy manbalari – oilaviy nizolar, psixologik bosim, ishsizlik, ijtimoiy adolatsizlik, doʻstlik va qoʻllab-quvvatlash tizimlarining zaifligidir. Ushbu xavflarni bartaraf etish uchun quyidagilar zarur:

– psixologik xizmatlarni maktab va mahallalarda tizimli yoʻlga qoʻyish;

– stress, gʻazab va yolgʻizlikni yengish boʻyicha treninglar tashkil etish;

– huquqiy tarbiya va empatiya madaniyatini rivojlantirish;

– oilaviy va ijtimoiy muhitni mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish;

– yuridik klinikalar orqali shaxsiy maslahatlar va profilaktik yordamni kuchaytirish.

Mazkur tadqiqot natijalari yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, xususan, ijtimoiy xavf ostidagi guruhlar bilan individual ishlash mexanizmlarini yaratishda muhim ilmiy-amaliy asos boʻlib xizmat qiladi.

**Xulosalar**

Toshkent shahri va Toshkent viloyati yoshlari oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrov natijalari, yoshlar oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlar, axborot xavfsizligi bilan bogʻliq tendensiyalar, shuningdek, yoshlarning ijtimoiy xavfdan himoyalashga qaratilgan turli tashabbuslarga boʻlgan munosabatlariga oid qimmatli maʼlumotlarni taqdim etdi. Tafsiliy tahlil shuni koʻrsatdiki, yoshlar oʻrtasidagi ijtimoiy xavfning asosiy manbalari oila, bilim olish, ishsizlik va ijtimoiy adolatsizlik muammolaridan iboratdir. Yoshlar orasida ijtimoiy xavfga boʻlgan munosabatlar turli xil boʻlib, eng koʻp tarqalgan xavflar oiladagi iqtisodiy qiyinchiliklar va bilim olishdagi muammolar bilan bogʻliq boʻldi. Bu holat, oʻz navbatida, yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka erishishdagi imkoniyatlarini chegaralab qoʻyayotganligi, buning ortidan yoshlar iqtisodiy mustaqillikka erishish va oʻz imkoniyatlarini yanada oshirish uchun turli yoʻllarni izlayotganligini kuzatish mumkin.

Soʻrov natijalari shundan dalolat beradiki, yoshlar oʻrtasida axloqiy, maʼnaviy va ijtimoiy qadriyatlarga oid oʻzgarishlarga boʻlgan qiziqish hamda muammolar katta ahamiyatga ega. Yoshlarning har qanday ijtimoiy xavfni bartaraf etish uchun, maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan taʼlim va tarbiya tizimlariga muhtoj ekanligini koʻrish mumkin. Yoshlar oʻzlarini ijtimoiy xavfdan himoya qi-

lish va barqaror hayot tarzini yo'lga qo'yish uchun ta'lim va kasbiy tayyorgarlik dasturlariga, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka qaratilgan loyihalarga qiziqish bildirmoqdalar.

Yoshlarni ijtimoiy xavfga qarshi kurashishga tayyorlash uchun maxsus dasturlarning samaradorligini oshirish zarurati mavjud. Bundan tashqari, mahalliy organlar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli tadbirlar va dasturlarni yaratish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahliliy material, Toshkent shahri va Toshkent viloyati yoshlari o'rtasidagi ijtimoiy xavflar va ularga qarshi kurashish choralariga oid yangi tendensiyalar va muammolarni ochib beradi. Bunday tadqiqotlar, yoshlar bilan ishlashning samarali mexanizmlarini yaratish va ijtimoiy xavfni kamaytirish uchun amalga oshiriladigan aniq tadbirlarni ishlab chiqishda muhim manba bo'ladi. Kelgusida amalga oshiriladigan ushbu mavzudagi tadqiqotlarning kengaytirilgan shakllari yoshlarning ijtimoiy xavfdan himoyalanishini ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

## REFERENCES

1. Youth Wellbeing Policy Review. Paris, OECD Publ., 2022, p. 85.

2. UNESCO. Mental Health and Psychosocial Wellbeing of Adolescents, 2020, p. 98.

3. Rysakov I. *Psikhologiya podrostka v usloviyakh sotsiuma* [Psychology of a teenager in a social environment]. Moscow, Education Publ., 2021, p. 115.

4. Qodirov A., Abdurahmonov J. Yoshlar siyosati: amaliyot va muammolar [Youth policy: practice and problems]. Tashkent, Fan Publ., 2023, p. 102.

5. Golova Yu.P. Sotsialnaya rabota s molodyozhyu: teorya i praktika [Social work with youth: theory and practice]. Moscow, Graduate School Publ., 2008, p. 180.

6. Mikhaylov V.A. Sotsial'nye problemy molodyozhi v Rossii: teoriya i praktika sotsial'noy raboty [Social problems of youth in Russia: Theory and practice of social work]. Moscow, Science Publ., 2011, p. 200.

7. Alekseyeva T.I. Psikhologiya molodyozhi: sotsial'nye, kul'turnye i lichnostnye aspekty [Psychology of youth: social, cultural and personal aspects]. St. Petersburg, Piter Publ., 2013, pp. 220–240.

8. Panina M.M. Sotsial'naya rabota s molodezh'yu i sem'yami v sotsial'no-opasnom polozhenii [Social work with youth and families in socially dangerous situations]. Moscow, RGGU Publ., 2017, pp. 60–85.

9. Kozlova N.L. Sotsial'nye tekhnologii profilaktiki deviantnogo povedeniya molodyozhi [Social Technologies for the Prevention of Deviant Behavior Among Youth]. Moscow, Academic project Publ., 2016, p. 250.

10. Erofeyev Yu.I. Problemy molodyozhi v sovremennoy Rossii: sotsiokul'turnye aspekty [Problems of youth in modern Russia: social cultural aspects]. Moscow, Scientific book Publ., 2012, pp. 14–152.

11. Smirnova N.A. Sotsial'noye blagopoluchiye molodyozhi i formy sotsial'noy pomoshchi [Social Well-Being of Youth and Forms of Social Assistance]. St. Petersburg, RGU Publ., 2014, p. 210.

12. Shmidt A.N. Molodyozh' i obshchestvo: sotsial'naya politika i profilaktika sotsial'nykh riskov [Youth and society: social policy and prevention of social risks]. Moscow, Science Publ., 2019, pp. 160–180.

13. Youth of Uzbekistan: Challenges and Prospects. UNICEF. Tashkent, UNICEF Uzbekistan, 2020, p. 76.

14. Adolescents' Mental Health and Psychosocial Well-being at Schools. UNICEF. Tashkent, UNICEF Uzbekistan, 2022, p. 92.

15. Juraev B., Abdullaev S. Youth Social Deviation in the Process of Reforms in Uzbekistan. Atlantis Publ., *Advances in Social Science, Education and Humanities Research*, 2022, vol. 677, p. 6. DOI: 10.2991/assehr.k.220509.081.

16. Ochilov B. Sociological Study of Social and Innovative Activities of Youth in Uzbekistan. Tashkent, *ResearchGate*, 2023, p. 10.

17. Uzbekistan to Improve Access and Quality of Social Services for Vulnerable People. Washington: The World Bank Press Release. World Bank, 2024, p. 25.

18. Partnering to Improve Child Psychiatry Training and Services in Uzbekistan. University of Michigan. *Michigan Medicine News*, 2025, p. 85.

19. CDP Uzbekistan. Integrated Child Development Programme: Overview and Implementation. Tashkent: ICDP Uzbekistan, 2023, p. 72.

20. Tojiboyev B., Isokov S. Youth Social Deviation in the Process of Reforms in Uzbekistan. Atlantis Publ., 2022, pp. 394–400.

21. Turdiboyeva G. The Factors Influencing the Spread of Delinquency and Crime Among Minors in Uzbekistan. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2024, pp. 1–4.

22. Otamuratov S. Sociological Aspects of Studying the Specific Characteristics of the Youth Social Group. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 2023, p. 49.

23. Murodova A.M. Problems and Prospects of the Youth of Modern Uzbekistan. *International Journal on Integrated Education*, 2022, pp. 188–192.

24. Urunov Sh., Komiljonova N. State Youth Policy in Uzbekistan: Its Goals. *Achievements and Challenges. Involta Scientific Journal*, 2023, pp. 123–142.

25. Adxamov P. Working with Disorganized Youth and Studying Their Psychology. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 2025, pp. 288–290.

26. Kuvatov J.A. Prevention of Crime and Delinquency Among Young People. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 2023, pp. 373–377.

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 3-SON

VOLUME 5 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3.